

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar–iyun oilariga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **995 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **1,0 f.p kamaydi.**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **874 taga oshgan.**


2018 yilning yanvar-iyun oyida Respublikada 1455 ga yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 291 ga ko'pdir.

Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu korxonalar va tashkilotlar davriga nisbatan 6,4 % ga kating asosiy ulushi Nukus maygan hamda ularning soni shahrida (32,2 %), To'rtko'l 581 ni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 995 ta (7,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 14737 ni tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar davriga nisbatan 6,4 % ga kating asosiy ulushi Nukus maygan hamda ularning soni shahrida (32,2 %), To'rtko'l (9,8 %), Beruniy (8,3 %) va Amudaryo (7,3 %) hududlarida kuzatilmoxda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




***Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi***

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyul holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Qoraqalpogiston Respublikasi	15258	100,0	14737	100,0
Nukus sh.	4880	32,0	4753	32,3
<i>tumonlar:</i>				
Amudaryo	1111	7,3	1083	7,3
Beruniy	1266	8,3	1220	8,3
Qanliko'l	405	2,7	394	2,7
Qorao'zak	431	2,8	429	2,9
Kegeyli	446	2,9	444	3,0
Qo'ng'iroq	886	5,8	829	5,6
Mo'ynoq	235	1,5	233	1,6
Nukus	628	4,1	607	4,1
Taxiatosh	404	2,6	383	2,6
Taxtako'pir	294	1,9	284	1,9
To'rtko'l	1552	10,2	1452	9,9
Xo'jayli	792	5,2	740	5,0
Chimboy	593	3,9	569	3,9
Shumanay	365	2,4	355	2,4
Ellikkala	970	6,4	962	6,5


Korxonalar va tashkilotlarning umumiyligi sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiyligi sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 96,6 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 3,4 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 1,0 f.p. kamaydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 20,6 % savdoda, 12,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 10,5 % sanoatda, 10,5 % qurulishda, 5,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5,0 % tashish va saqlash, 2,0 % axborot va aloqa, 1,9 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 31,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yhatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-iyun holatiga 1455 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 25,0 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Nukus shahrida (452 ta), To'rtko'l (123 ta), Amudaryo (117 ta) va Qo'ng'iroq tumanlarida (95 ta) tashkil etilgan. Eng kam Kegeyli (32 ta), Mo'ynoq (34 ta) hamda Taxtako'pir (35 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (239 ta), savdoda (232 ta), sanoatda (227 ta) va qurilishda (199 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (13 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (31 ta) hamda tashish va saqlashda (47 ta) tashkil etilganligi kuzatilmogda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-iyun holatiga.	2018 yil yanvar-iyun holatiga.
Jami:	1164	1455
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	274	239
Sanoat	269	227
Qurilish	132	199
Savdo	187	232
Tashish va saqlash	41	47
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	89	83
Axborot va aloqa	24	13
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	22	31
Boshqa turlari	126	384

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2018 yil 1 iyul holatiga 11327 tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2805 ta, oilaviy korxonalar – 558 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 7638 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 31 ni va boshqalar 295 ni tashkil etadi.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 93 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 25 taga yoki 36,8 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalardan 53 tasi qo'shma korxonalar, 40 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Nukus shahar 19 ta (20,4 %), Qo'nq'iroq va Mo'ynoq tumanlari 8 ta (8,6 %), Kegeyli va Taxiatosh tumanlarida 7 ta (7,5 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Ellikkala tumani 1 ta (1,1 %), Shumanay, To'rtko'l va Qanliko'l tumanlari 2 ta (2,2 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur tumanlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyul holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 47 ta (50,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 23 ta (24,7 %), savdoda 13 ta (14,0 %), eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 ta (2,2 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda va tashish va saqlash 1 ta (1,1 %), qurilishda 4 ta (4,3 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'gri keladi.


Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-iyun oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 14 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10 taga ko'paygan yoki 3,5 baravarga oshgan.


Bunda, Qozog'iston Respublikasi – 3 ta, Rossiya Federatsiyasi va Xitoy Xalq Respublikasi kapitali ishtirokida – 2 ta , Turkiya Respublikasi va Koreya Respublikasi – 1 ta va boshqa davlatlardan 6 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi,Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-iyun holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 8 ta, sanoatda 3 ta, savdoda, qurilishda va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyul holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 11257 ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyul holatiga qaraganda 8,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 3933 si (34,9 %) Nukus shahriga, 1209 si (10,7 %) To'rtko'l, 961 si (8,5 %) Beruniy, 798 si (7,1 %) Amudaryo hamda 715 si (6,4 %) Ellikkala tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11257 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3020 si (26,8 %) – savdoda, 1795 i (15,9 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1534 si (13,6 %) - qurilishda, 1525 si (13,5 %) - sanoatda, 862 si (7,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 740 si (6,6 %) - tashish va saqlashda, 251 si (2,2 %) - axborot va aloqa sohasida, 193 si (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1337 si (11,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-iyun holatiga 1146 dan oshiq kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,1 % ga ko‘proqdir. Eng ko‘p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Nukus shahrida (389 ta), To’rtko‘l (106 ta), Amudaryo (102 ta) va Nukus tumanlarida (72 ta) tashkil etilgan. Eng kam Taxtakupir (21 ta), Kegeyli (22 ta) hamda Muynak (23 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko‘pi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida (239 ta), savdoda (232 ta), sanoatda (227 ta) va qurilishda (199 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (13 ta), sog’lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (30 ta) hamda tashish va saqlashda (47 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da




Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyul holatiga 585 tani tashkil etib, ulardan 558 tasi yoki 95,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **16,9 %** ga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

■ Ro'yhatdan o'tgan ■ 'Faoliyat ko'rsatayotgan ■ 'Yangi tashkil etilganlari



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 30,5 % yoki 170 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 25,6 % yoki 143 tasi sanoat, 22,6 % yoki 126 tasi savdo, 7,7 % yoki 43 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,6 % yoki 9 tasi axborot va aloqa, 2,0 % yoki 11 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish 0,7 % yoki 4 tasi qurilish, 0,4 % yoki 2 tasi tashish va saqlash hamda 8,9 % yoki 50 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika
boshqarmasi**

Statistik registrarlarni yuritish bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

Z.Qalmuratova
(0371) 230-82-23

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan**